| Zokirjonov Muhammadsodiq Ravshanbek o'g'li                                                                                               |     |
| NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI .....                                       | 485 |
| Turmanqulov Norpo'lat Sa'dullayevich                                                                                                     |     |
| MINTAQADA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH.....                                              | 491 |
| Saparov Ismat Chorshanbiyevich                                                                                                           |     |
| MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANISHDA EKOLOGIK INNOVATSIYALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI .....                                        | 495 |
| Ismatov Sharofiddin Asatulloevich                                                                                                        |     |





|                                                                                                                                                              |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| THE ESSENCE OF THE OPTIMAL COST STRATEGY .....                                                                                                               | 500 |
| Sodiqov Mirakhror Abbos ugli                                                                                                                                 |     |
| TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TOG'-KURORT ZONALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI (CHORVOQ ERKIN TURISTIK ZONASI MISOLIDA) .....                       | 504 |
| Shomurodova Shahnoza G'ayratovna                                                                                                                             |     |
| ICHKI AUDIT SIFATI VA SAMARADORLIGI TUSHUNCHALARINING IQTISODIY MAZMUNI HAMDA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI .....                                              | 509 |
| Ergashev Olloyor Furqat o'g'li                                                                                                                               |     |
| QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH VA UNI HISOBINI YURITISH .....                                                                     | 517 |
| Abdullayev Abdurauf                                                                                                                                          |     |
| TIJORAT BANKLARINING RISKLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....                                                                                      | 522 |
| Kudaybergenova Guzal Kuanishbayevna                                                                                                                          |     |
| TIJORAT BANKLARIDA KORRUPSIYAVIY-KOMPLAENS MUAMMOLARI: TAHLIL VA YECHIMLAR .....                                                                             | 527 |
| Yunusov Baxtiyor Shavkatovich                                                                                                                                |     |
| MAISHIY XIZMAT KO'RSATISHNING SIFAT NAZORATINI HAMDA TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                 | 532 |
| Meliyev X.T.                                                                                                                                                 |     |
| ОЦЕНКА КАЧЕСТВА СЕРВИСА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ОПРОСА .....                    | 541 |
| Усманова Азиза Баходировна                                                                                                                                   |     |
| RAQAMLI BANK XIZMATLARI ORQALI MOLIVAVIY INKLYUZIVLIKNI KENGAYTIRISH .....                                                                                   | 545 |
| Azlarova Mushtariybegim Abror qizi                                                                                                                           |     |
| QURILISH KORXONALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING AHAMIYATI .....                                                                            | 550 |
| Egamon Raxmatillo Mirolimovich, Bobobekov Davron Gafurovich                                                                                                  |     |
| FINANCIAL MARKET PARTICIPANTS: A CLASSIFICATION BY ROLE AND RESPONSIBILITY .....                                                                             | 553 |
| Khotamkulova Madina                                                                                                                                          |     |
| ФОРМИРОВАНИЕ «ТУРИСТИЧЕСКОЙ МАХАЛЛИ» КАК ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В СФЕРЕ ГОСТЕВЫХ ДОМОВ УЗБЕКИСТАНА .....                    | 559 |
| Иргашева Нигина Салохиддиновна                                                                                                                               |     |
| BANKLARDA KREDIT GAROVI BILAN ISHLASHNING XORIJ ILG'OR TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTON BANKLARI AMALIYOTIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI .....                    | 567 |
| Sh. Saidov                                                                                                                                                   |     |
| MILLIY UGLEROD SAVDOSI TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI .....                                                                    | 573 |
| Islamov Shoxzod Shuxrat o'g'li                                                                                                                               |     |
| THE NECESSITY OF CREATING A BUSINESS ENVIRONMENT AND ITS ROLE AND SIGNIFICANCE IN THE NATIONAL ECONOMY .....                                                 | 582 |
| Amanov Davron Ravshan ugli                                                                                                                                   |     |
| SUV RESURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....                                                                                             | 588 |
| Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahammatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek                                                                                         |     |
| ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА БАНКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО И ПРИНЦИПАМИ ESG .....                                               | 595 |
| Насирдинов Шарифджон Изатуллоевич                                                                                                                            |     |
| ОЦЕНКА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭЛЕКТРОБУСА .....                                                                                                        | 600 |
| Мухитдинов Акмал Анварович, Касимов Омил Камалович, Саидов Азамат Илхом угли                                                                                 |     |
| XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA DUKKAKLI DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI (HINDISTON TAJRIBASI MISOLIDA) ..... | 608 |
| Mirsayd Xudaybergenov                                                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLINING FAROVONLIGI VA DAROMAD MANBALARINI STATISTIK TAHLILI .....                                                              | 612 |
| Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARUV<br>MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 618 |
| Muxamedjanova Maxfuza Baxodir qizi                                                                                   |     |
| MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI, MAZMUNI HAMDA KLASSIFIKATSIYASI.....                                      | 627 |
| Odiljonova Oybachin Fayzullo qizi                                                                                    |     |
| XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ORQALI MAMLAKATIMIZ LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH<br>TARTIBI TAHLILI.....                 | 631 |
| Rasulova Difuza Valiyevna                                                                                            |     |



# XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ORQALI MAMLAKATIMIZ LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI TAHLILI

**Rasulova Dilfuza Valiyevna**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,  
"Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrasini mudiri,  
DSc., professor  
ORCID ID: 0009-0008-1778-0054

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalqaro moliya institutlari orqali O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan loyihalarni tashkil etish va moliyalashtirish tartibi tahlil qilingan. Tadqiqotda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki hamda Xalqaro valuta jamg'armasi kabi xalqaro moliya institutlarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish bosqichlari, jumladan, loyiha tashabbusini shakllantirish, texnik-iqtisodiy asosni ishlab chiqish, moliyaviy hamkorni tanlash, loyihani baholash, tender jarayonlari hamda monitoring va audit tizimlari tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlik mamlakatimizda infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, investitsiyalarni jalb etish hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, loyihalarni amalga oshirish jarayonida shaffoflik, iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va institutsional rivojlanish kabi omillarga alohida e'tibor qaratish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro moliya institutlari, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, investitsion loyihalar, moliyalashtirish mexanizmlari, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, monitoring va audit.

**Abstract.** This article analyzes the procedure for implementing and financing projects in the Republic of Uzbekistan through international financial institutions. The study highlights the role of major international financial organizations such as the World Bank, the Asian Development Bank, the European Bank for Reconstruction and Development, the Islamic Development Bank, and the International Monetary Fund in the economic development of the country.

In addition, the main stages of project implementation in cooperation with international financial institutions are examined, including the formation of project initiatives, preparation of feasibility studies, selection of financial partners, project evaluation, tender procedures, and monitoring and audit systems.

The results of the study show that effective cooperation with international financial institutions plays an important role in developing infrastructure, attracting investment, deepening economic reforms, and increasing the competitiveness of the national economy. Furthermore, the importance of ensuring transparency, economic efficiency, environmental sustainability, and institutional development in project implementation is emphasized.

**Key words:** international financial institutions, World Bank, Asian Development Bank, European Bank for Reconstruction and Development, investment projects, financing mechanisms, economic development, infrastructure, monitoring and audit.

**Аннотация.** В данной статье анализируется порядок реализации и финансирования проектов в Республике Узбекистан через международные финансовые институты. В исследовании раскрывается роль таких международных финансовых организаций, как Всемирный банк, Азиатский банк развития, Европейский банк реконструкции и развития, Исламский банк развития и Международный валютный фонд, в развитии экономики страны.

Также рассматриваются основные этапы реализации проектов в сотрудничестве с международными финансовыми институтами, включая формирование проектной инициативы, разработку технико-экономического обоснования, выбор финансового партнёра, оценку проекта, проведение тендерных процедур, а также систему мониторинга и аудита.





По результатам исследования установлено, что эффективное сотрудничество с международными финансовыми институтами является важным фактором развития инфраструктуры, привлечения инвестиций, углубления экономических реформ и повышения конкурентоспособности национальной экономики. Кроме того, обоснована необходимость уделяния особого внимания вопросам прозрачности, экономической эффективности, экологической устойчивости и институционального развития в процессе реализации проектов.

**Ключевые слова:** международные финансовые институты, Всемирный банк, Азиатский банк развития, Европейский банк реконструкции и развития, инвестиционные проекты, механизмы финансирования, экономическое развитие, инфраструктура, мониторинг и аудит.

## KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiy jarayonlarning jadallashuvi, xalqaro moliya tizimining chuqur integratsiyalashuvi hamda mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning kengayishi sharoitida xalqaro moliya institutlarining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun ushbu institutlar moliyaviy resurslarni jalb qilish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish hamda ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda muhim strategik hamkor sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar, grantlar, texnik yordam hamda ekspertlik xizmatlari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, boshqaruv tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribani amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ham global moliya tizimiga faol integratsiyalashib borayotgan davlatlardan biri sifatida xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki hamda Xalqaro valuta jamg'armasi kabi nufuzli institutlar bilan amalga oshirilayotgan hamkorlik mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, energetika va transport tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur institutlar nafaqat moliyaviy resurslarni, balki ilg'or boshqaruv tajribasini, institutsional yondashuvlarni hamda zamonaviy monitoring mexanizmlarini taqdim etib, amalga oshirilayotgan loyihalarning samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarning tashkil etilish jarayoni, ularning asosiy bosqichlari hamda iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatayotgan ta'sirini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada xalqaro moliya institutlari orqali mamlakatimizda amalga oshirilayotgan loyihalarning shakllanishi, moliyalashtirilishi hamda monitoring jarayonlari tahlil qilinib, ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni yoritib beriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro moliya institutlarining iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi o'rni, ularning moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ko'rsatadigan ta'siri masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda xalqaro moliya institutlarining iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashdagi roli, investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari hamda institutsional hamkorlik masalalari turli jihatlardan tahlil qilingan.

Xalqaro iqtisodiyot sohasidagi taniqli olimlardan biri J. Stiglitz xalqaro moliya institutlarining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi rolini chuqur tahlil qilib, ushbu institutlar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy yordam iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, Jahon banki va Xalqaro valuta jamg'armasi tomonidan ajratilayotgan kreditlar hamda texnik yordam dasturlari nafaqat moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish hamda iqtisodiy siyosatni takomillashtirishga ham xizmat qiladi (Stiglitz, 2002).

Shuningdek, J. Sachs va A. Warner tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslar rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma, energetika va transport sohaslarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi qayd etilgan. Ularning ilmiy ishlarida ushbu institutlar orqali amalga oshirilayotgan loyihalar iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini tezlashtirib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun zarur sharoit yaratishi ta'kidlanadi (Sachs & Warner, 2001).

Xalqaro moliya institutlari faoliyatini o'rganishda Jahon banki tomonidan e'lon qilinadigan analitik hisobotlar ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Xususan, Jahon bankining rivojlanish bo'yicha yillik hisobotlarida xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar orqali infratuzilmani rivojlantirish, kambag'allik darajasini qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani qayd etilgan (World Bank, 2022).



Osiyo taraqqiyot banki tomonidan tayyorlangan tadqiqotlarda esa bank tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi, ayniqsa transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, energetika samaradorligini oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi alohida ta'kidlanadi (Asian Development Bank, 2023).

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, Sh. Shodmonov va U. G'afurov o'z tadqiqotlarida xalqaro moliya institutlarining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni hamda ularning moliyaviy resurslarini jalb etish mexanizmlarini tahlil qilib, ushbu institutlar bilan samarali hamkorlik milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil ekanligini qayd etganlar (Shodmonov & G'afurov, 2010).

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar, grantlar hamda texnik yordam dasturlari mamlakatimizda infratuzilma, energetika, qishloq xo'jaligi hamda ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shayotgani ta'kidlangan (Karimov, 2017).

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda muhim moliyaviy va institutsional manba hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu institutlar bilan hamkorlikni samarali tashkil etish, moliyalashtirilayotgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda milliy manfaatlarini hisobga olgan holda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xalqaro moliya institutlari orqali O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarni tashkil etish va moliyalashtirish jarayonini o'rganish uchun bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, ilmiy abstraksiya va tizimli yondashuv usullari orqali xalqaro moliya institutlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki hamda Xalqaro valuta jamg'armasining moliyalashtirish mexanizmlari o'zaro taqqoslandi. Shuningdek, tahlil va umumlashtirish usullari asosida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarning bosqichlari — loyiha tashabbusini shakllantirish, texnik-iqtisodiy asosni ishlab chiqish, moliyaviy hamkorni tanlash, baholash, tender jarayonlari hamda monitoring va audit tizimlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro tashkilotlar va O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik hamda analitik ma'lumotlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda global miqyosdagi xalqaro moliya institutlari bilan faol va tizimli hamkorlik olib borib, milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, infratuzilmaviy loyihalarni jadallashtirish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda xalqaro tajribaga tayanmoqda. Xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki hamda Xalqaro valuta jamg'armasi kabi yirik moliyaviy institutlar mamlakatimizga zarur moliyaviy mablag'lar, texnik maslahatlar, ekspertlar va ilg'or boshqaruv mexanizmlarini taqdim etish orqali hamkorlikda keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur institutlar tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar, grantlar, qarz mablag'lari hamda texnik yordam vositalari orqali qamrovli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda, natijada iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, barqarorligi va ochiqligi mustahkamlanmoqda. Har bir xalqaro moliya institutining o'ziga xos yondashuvi, moliyaviy siyosati hamda moliyalashtirish shartlari mavjud bo'lib, ular mamlakatimizning iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlab olinadi.

Masalan, Jahon banki asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, ichimlik suvi ta'minoti, qishloq infratuzilmasi hamda davlat boshqaruvi sohasiga e'tibor qaratgan holda texnik yordam bilan bir qatorda infratuzilma va inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarni taqdim etadi. Shu bilan birga, bank tomonidan joriy etilgan monitoring va nazorat mexanizmlari orqali loyihalarning shaffofligi, samaradorligi hamda barqarorligi ta'minlanadi.

Bunday xalqaro hamkorlik doirasida loyihalarni amalga oshirishning izchil tartibi mavjud bo'lib, u bir necha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Eng avvalo, davlat idoralari yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan loyiha tashabbusi ilgari suriladi. Ushbu bosqichda muammoli hudud yoki ijtimoiy soha aniqlanadi, loyihaning konsepsiyasi ishlab chiqiladi hamda loyiha g'oyasining dolzarbligi asoslab beriladi. Loyiha tashabbuskorlari mavjud muammoning tub sabablarini aniqlab, uni xalqaro moliya institutlari yordami orqali hal etish imkoniyatlarini asoslab berishlari zarur.



Keyingi bosqichda texnik-iqtisodiy asos (feasibility study) ishlab chiqiladi. Ushbu hujjatda loyiha rentabelligi, iqtisodiy samaradorligi, ijtimoiy ta'siri, atrof-muhitga mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlar hamda risklarni boshqarish choralari aks ettiruvchi muhim ma'lumotlar jamlanadi. Masalan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki ushbu bosqichda loyihaning ekologik xavfsizligi, energiya samaradorligi, gender tengligi hamda moliyaviy barqarorligini alohida e'tibor bilan baholaydi. Aynan shu tahliliy hujjatlar asosida xalqaro moliya institutlari keyingi qarorlarni qabul qiladi, ya'ni loyihaning moliyalashtirish uchun maqbulligi yuzasidan baho beradi (1-rasm).



1-rasm – Xalqaro moliya institutlari orqali mamlakatimiz loyihalarini amalga oshirish tartibi<sup>1</sup>

Texnik va iqtisodiy asoslar ijobiy baholangandan so'ng hukumat tomonidan moliyaviy hamkorni tanlash bosqichi boshlanadi. Ushbu bosqichda tanlov xalqaro moliya institutlari tomonidan taklif etilayotgan foiz stavkalari, kredit muddatlari, to'lov shartlari, kredit ajratish mexanizmi, mablag'larning sarflanishini nazorat qilish tartibi hamda texnik yordam qamrovi kabi bir qator muhim mezonlarga asoslanadi.

Masalan, Osiyo taraqqiyot banki infratuzilma, energetika va transport sohalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratadi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki esa xususiy sektorni, ayniqsa kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qiladi. Islom taraqqiyot banki, o'z navbatida, islomiy moliya tamoyillari asosida foizsiz hamda shariat tamoyillariga muvofiq moliyalashtirish tizimlarini taklif etadi. Mazkur institutlar bilan rasmiy ariza orqali aloqaga chiqiladi va barcha zarur hujjatlar elektron hamda yozma shaklda taqdim etiladi.

Moliyaviy institut loyiha taklifini qabul qilgach, loyihani baholash bosqichiga o'tiladi. Ushbu bosqichda xalqaro mutaxassislar loyiha mazmunini texnik, moliyaviy, ijtimoiy va ekologik jihatlardan chuqur tahlil qiladi. Har bir parametr bo'yicha mumkin bo'lgan xavf-xatarlar aniqlanadi, alternativ variantlar ko'rib chiqiladi hamda zarurat tug'ilganda loyihaning ayrim jihatlarini qayta ko'rib chiqiladi. Agar loyiha barcha mezonlarga mos kelsa, moliyaviy institut va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida kredit shartnomasi imzolanadi.

Mazkur kredit shartnomasi loyihaning aniq qiymati, amalga oshirish muddatlari, monitoring tartibi, audit talablari, to'lov rejasini hamda qarzni qaytarish shartlarini o'z ichiga oladi. Shundan so'ng ochiq va xalqaro tender e'lon qilinadi hamda pudratchilar tanlab olinadi. Ushbu jarayonda shaffoflik, raqobatbardoshlik va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarning ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratadi.

Loyihaning amaliy bajarilishi boshlanganidan so'ng muntazam monitoring, audit hamda hisobot jarayonlari yo'lga qo'yiladi. Xalqaro moliya institutlari har chorakda va har yili loyiha bo'yicha batafsil hisobotlar taqdim etilishini talab qiladi. Moliyaviy xarajatlar, vaqt jadvali, ish sifati, risklarni boshqarish choralari hamda ekologik nazorat kabi ko'rsatkichlar doimiy ravishda monitoring qilinadi.

Xalqaro valuta jamg'armasi (IMF) esa mazkur jarayonlarni asosan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholaydi. Jumladan, fiskal barqarorlik, valyuta siyosati, inflyatsiya darajasi, budget taqchilligi hamda to'lov balansining holati tahlil qilinadi. Loyiha to'liq yakunlangach, moliyaviy institutlar yakuniy natijadorlik bahosini beradi, foydalanuvchilar fikri o'rganiladi, ijobiy va salbiy jihatlar tahlil qilinadi hamda natijalar kelgusida amalga oshiriladigan loyihalar uchun muhim tajriba sifatida hisobga olinadi.

1 Manba: muallif ishlanmasi.



Shu tarzda xalqaro moliya institutlari bilan olib borilayotgan tizimli va bosqichma-bosqich hamkorlik mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, ijtimoiy sohani mustahkamlash hamda atrof-muhitga barqaror rivojlanish modelini joriy etishda muhim strategik vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki boshqaruv madaniyatini oshirish, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish hamda iqtisodiy islohotlarni tizimli ravishda chuqurlashtirish imkonini ham yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlik O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o'rin egallaydi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki hamda Xalqaro valuta jamg'armasi kabi nufuzli institutlar bilan hamkorlik natijasida mamlakatimizda infratuzilma, energetika, transport, qishloq xo'jaligi, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ustuvor sohalarda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihalar iqtisodiyotning modernizatsiyasi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari orqali amalga oshirilayotgan loyihalar aniq bosqichlar asosida tashkil etiladi. Loyiha tashabbusini shakllantirish, texnik-iqtisodiy asosni ishlab chiqish, moliyaviy hamkorni tanlash, loyihani baholash, kredit shartnomasini tuzish, tender jarayonlarini o'tkazish hamda monitoring va audit tizimini yo'lga qo'yish kabi bosqichlar loyihalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ayniqsa, ushbu institutlar tomonidan joriy etilayotgan shaffoflik, monitoring va nazorat mexanizmlari loyihalarning samaradorligini oshirish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki zamonaviy boshqaruv tajribasini o'rganish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish imkonini ham yaratadi. Shu bilan birga, loyihalarni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik, ijtimoiy ta'sir hamda risklarni boshqarish kabi omillarga alohida e'tibor qaratilishi muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, xalqaro moliya institutlari bilan tizimli hamkorlikni yanada rivojlantirish, moliyalashtirilayotgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda ularning natijadorligini muntazam baholab borish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, yangi investitsion loyihalarni jalb etish hamda milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish orqali mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini yanada mustahkamlash mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stiglitz, J. Globalization and Its Discontents. – New York: W. W. Norton & Company, 2002.
2. Sachs, J., Warner, A. The Curse of Natural Resources. // European Economic Review. – 2001. – Vol. 45. – pp. 827–838.
3. World Bank. World Development Report 2022–2024: Finance for an Equitable Recovery. – Washington, DC: World Bank Publications, 2025.
4. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2022–2024: Economic Recovery in Asia. – Manila: ADB Publications, 2025.
5. International Monetary Fund. World Economic Outlook 2022–2024. – Washington, DC: IMF Publications, 2025.
6. European Bank for Reconstruction and Development. Transition Report 2022–2024. – London: EBRD Publications, 2025.
7. Islamic Development Bank. IsDB Annual Report 2022–2024. – Jeddah: Islamic Development Bank Group, 2025.
8. Shodmonov, Sh., G'afurov, U. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2010.
9. Karimov, N. Xalqaro moliya institutlari va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi roli. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2017.
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2025.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi. – Toshkent, 2025.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha statistik to'plam. – Toshkent, 2024.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 3

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---